


Amaliy tadqiqotlar tanlovi mavzusi

“Texnika fanlari” yo‘nalishi

Loyiha mavzusi	Loyiha bajarilishidan kutilayotgan natija
Vodorod generatorlarining energiya samaradorligini oshirish maqsadida elektrodni molibden va volfram qoplamali yangi funksional gradient material asosida yaratish 	Tadqiqot shakli: Amaliy. Ilmiy tadqiqot natijalari: - Elektrodni arzonlashtirish maqsadida temir yoki alyuminiy elektrodni yupqa qatlam molibden yoki volfram bilan qoplash; - Yaratilgan elektrodni ish jarayonida sinash; - Yangi elektrodni asosida ishlaydigan elektrolizer qurilmasining yangi konstruksiyasini loyihalash; - Yangi konstruksiyaning matematik modelini ishlab chiqish; - Elektrolizer qurilmasi konstruksiyalarini yaratish va sinab ko‘rish. - Yaratilgan qurilmaning kapital ta‘mimgacha ishlash davri 10 yildan kam bo‘lmasligi; - Ishlab chiqariladigan vodorod moddasining tozalik darajasi 99,95% dan kam bo‘lmasligi; - 1 Nm³ vodorod ishlab chiqarish uchun energiya sarfi 5 kVt soat dan oshmasligi; - Ishlab chiqarilayotgan vodorod va kislorod moddalarning elektrolizerdan chiqish bosimi 5 bardan kam bo‘lmasligi talab etiladi; - Barcha parametrlar sertifikatlangan o‘lchov asboblari yordamida ko‘rsatib beriladi. Natijalarni sinovdan o‘tkazish. Olingan natijalar Energetika vazirligi tizimidagi tashkilotlarda sinovdan o‘tkaziladi va ularning amaliyotda foydalanish uchun qabul qilinganligi to‘g‘risida Energetika vazirligining xulosasi olinadi. Ilmiy natijalarni chop etish. Olingan tadqiqot natijalari intellektual mulk obyektlari uchun hujjatlar tayyorlanadi. Tadqiqot natijalari asosida tavsiyanomalar, o‘quv qo‘llanmalar, hamda nufuzli jurnallarda va <i>Web of Science/Scopus</i> ma‘lumotlar bazasida indeksatsiyalangan jurnallarda maqolalar chop etiladi Izoh. Ushbu mavzuga taqdim etiladigan ilmiy loyihalar Energetika vazirligining qo‘llab-quvvatlash xati mavjud bo‘lganida qabul qilinadi.